



МАКТАБДАГИ INGLIZ TILI DARSLARIDA SO'ZLASHUV USLUBINI RIVOJLANTIRISH UCHUN METODLAR

Ikromova Nodira Raxmuddin qizi.

Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydova

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida ingliz tilini o'zlashtirishning asosiy jihatni hisoblanadigan so'zlashuv mahoratini o'stirish va rivojlantirishning muhim ahamiyati o'rganiladi. Pedagogik metodika va amaliy faoliyatga tayangan holda, mакtab o'quvchilarining ingliz tilidagi nutq qobiliyatini rag'batlantiradigan muhitni yaratish haqida tushunchalar ham berib o'tilgan. Maqolaning maqsadi o'qitishning turli xil usullarini tahlil qilish orqali o'qituvchilarni o'quvchilarining fikrlarini ingliz tilida ifoda etish va og'zaki muloqotlarda o'zlariga ishonch hamda faollik bilan ishtirok etish imkonini beradigan amaliy strategiyalar bilan ta'minlashdir. Sinfdag'i interfaol munozaralar va rolli o'yinlardan tortib hikoya qilib berish(storytelling) kabi innovatsion strategiyalargacha gapirish mahoratini oshirishga yordam beradigan metodlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sinf muhokamalari,nutqni tahlil qilish,taqlid, yangilik reportajlari, rolli o'yinlar, ingliz tili atmosferasi.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность воспитания и развития разговорных навыков у школьников, что является ключевым аспектом овладения английским языком. На основе педагогической методики и практической деятельности также были даны концепции о создании среды, стимулирующей умение школьников говорить на английском языке. Цель этой статьи — предоставить учителям практические стратегии, которые помогут учащимся выражать свои мысли на английском языке и уверенно и активно участвовать в устном общении. От интерактивных обсуждений в классе и ролевых игр до инновационных стратегий, таких как рассказывание историй, представлены методы, которые помогут улучшить разговорные навыки.

Ключевые слова: Дискуссии в классе, анализ речи, подражание, новостные сообщения, ролевая игра, английская атмосфера.

Annotation: This article examines the importance of cultivating and developing speaking skills, which is the main aspect of English language acquisition in schoolchildren. Based on pedagogical methodology and practical activities, ideas



were also given about creating an environment that stimulates the ability of schoolchildren to speak in English. The purpose of the article is to provide teachers with practical strategies that allow pupils to express their thoughts in English and participate confidently and actively in oral communications through the analysis of different teaching methods. From interactive classroom discussions and role-plays to innovative strategies such as storytelling techniques are presented to improve speaking skills.

Keywords: Class discussions, speech analysis, imitation, news reports, role-playing, English atmosphere.

Ingliz tili global til sifatida hukmron bo'lgan, tez rivojlanayotgan zamonda tilni samarali o'rganishga talab ortib bormoqda. Ingliz tilida gapira olish qobilyati son-sanoqsiz imkoniyatlar eshiklarini ochish bilan ma'nodoshga aylandi. Zamonaviy pedagogika oldida nafaqat grammatika va lug'atni o'rgatish, balki tez, qiziqarli va samarali gapira olish ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi turibdi. Ushbu maqola maktabdagi ingliz tili darslarining o'quvchilarning o'z fikrlarini og'zaki ifoda etish qobilyatini tarbiyalashdagi muhim rolini o'rganadi, va qolaversa o'rganuvchilarning ingliz tilida gapirish mahoratini oshirish uchun turli xil amaliy va qiziqarli metodlar yoritib beriladi.

1. O'zaro sinf muhokamalari(debate). O'qituvchi tomonidan berilgan alohida maxsus mavzuga sinfdagi o'quvchilar o'zlaring fikrlarini bahs shaklida muhokama qiliishlari hisoblanib, ularning o'z fikrlarini bildirishga, fikr almashishga, bahsmunozaralarga kirishishga undaydigan samarali metod. Qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlash o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi va o'quvchilarga ingliz tilida ravonlik, aniqlikni,bundan tashqari, ingliz tilida tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. Hikoya qilib berish (storytelling or narration). Ingliz tili darslarida o'quvchilarni o'zlari xohlagan mavzuda yoki ularga yoqqan ertak, multfilm qahramonlarini va bundan tashqari yuqori sinfda o'qiydiganlari uchun kino qahramonlarini turli xil janr hamda syujetdagi hikoyalar yaratish va ularni ulationishga chorlaydigan uslub bo'lib, bu nafaqat ularning lingvistik shuningdek so'zlashuv ko'nikmalarini oshiradi, balki ijodkorlik, tasavvur qobilyatlarini uyg'otishga yordam beradi. Bu qiziqarli usul ingliz tilida so'zlashganda tabiiylikni va umumiyl muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi.

3. Nutqni tahlil hamda taqlid qilish uslubi. Bu usul hozirgi kunda o'rganuvchilar orasida juda keng tarqalgan hisoblanib, o'quvchilarga mashhur shaxslarning nutqlarini tahlil qilish va bundan tashqari ularga taqlid qilish topshirig'i



beriladi, so'ogra tengdoshlariga o'rganganlarini qayta taqdim etish orqali ularning tushunish va talaffuz ko'nikmalarini yaxshilagan holda so'zlashuv mahoratini yanada rivojlantish sanaladi.

4. Intervyu yoki yangilik reportajlari. Darslarda o'quvchilar navbatma-navbat intervyu oluvchi jurnalist va unga javob beruvchi suhbatdosh bo'ladigan sahna ko'rinishlari o'tkazish yoki shunchaki yangilik sharhlovchi muxbirlarning rolini berish orqali real jarayonlar va ish suhbatlari uchun , bundan tashqari ularning favqulotda nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uslubi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashim mumkinki, bu yerda keltirilgan usul va metodlarning xilma-xilligi maktab sharoitida ingliz tilida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirishga oid yondashuvni ta'minlaydi. Jamoa bo'lib ishslash va turli nutq ssenariylari orqali so'zlashuvni yaxshilashga urg'u berish o'quvchilarning nafaqat lingvistik qobiliyatlarida ustun bo'lishlarini, balki ingliz tilida fikrlarni bemalol og'zaki ifoda etishning muhim shakllarini ham rivojlantirishni ta'minlaydi. Ushbu metodlarni ta'lim dasturida qo'llash mifik maktab o'quvchilariga ancha takomillashgan zamonda ingliz tilida muvaffaqiyatli so'zlasha olish uchun zarur bo'lgan malakani va shuningdek, til o'rganishda o'zlariga bo'lgan ishonchni kuchaytirishda katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/methods-to-develop-speaking-skills-in-modern-pedagogy/viewer>.
2. The Most Effective Methods for Developing Speaking Skill .
<https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/download/249/262>.
3. METHODS TO DEVELOP SPEAKING SKILLS IN MODERN PEDAGOGY
<https://cyberleninka.ru/article/n/methods-to-develop-speaking-skills-in-modern-pedagogy>.
4. <https://www.jurnal.stkipgritulungagung.ac.id/index.php/bright/article/download/739/362>.
5. <https://core.ac.uk/download/pdf/327176738.pdf>.
6. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
7. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).